

**O'QUVCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI TARBIYALASHNING
NAZARIY ASOSLARI**

Lukmonova Salomat Gafurovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashning nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, o'quvchilarda ma'naviyatga oid bilim, ko'nikmalarini hosil qilish, ya'ni ularni kichik yoshdan boshlab atrofda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga ahamiyat qaratish, ularga nisbatan o'z fikrini bildirish, halol, irodali bo'lism, kattalarni hurmat qilish, mehnatni qadrlash, nutqni rivojlantirish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, sabr-qanoatli bo'lism ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Tarbiya, axloq, ma'naviy, insonparvarlik, komil inson, komsepsiya, insoniylik, shakllantirish

Tarbiya masalasi har doim eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa ma'naviy axloqiy tarbiya esa o'ta nozik va murakkab bir jarayon hisoblanadi. Sharqda ta'lism va tarbiya egizak tushunchalar bo'lib ta'lism berib tarbiya beriladi, tarbiya berib ta'lism beriladi. Bu uyg'unbir jarayon sifatida tarbiyaning mukammal bo'lismini ta'minlaydi. Insonni komil qilib tarbiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi. O'rta asrlarda Markaziy Osiyo allomalari va XIX asrdagi jadidlar harakati namoyondalari ham kishining insoniy sifatlariga alohida to'xtalib, komil inson siymosining asosiy belgi fazilatlarini ko'rsatganlar. Ularning asarlarida ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan insoniy sifatlar – insonparlik, bilimga e'tiqod, xalq manfaatini himoya qilish, ma'naviyatni yuksaltirish, komil inson va yetuk jamoaga erishish masalalari yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabr 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari" to'g'risidagi qarori yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalashni maqsad qilib qo'ydi. Qarordan kelib chiqadigan asosiy ustuvor vazifalar belgilandi:Bular:

- ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish;
- tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarni ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash;
- yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;
- homiladorlik davridan boshlab 30 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-onasiga, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lism muassasalari

va mahalla jamoatchiligining o'zaro samarali hamkorligi mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzlusiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

- ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga karshi sog'lom dunyokarashni shakllantirish;

- uzlusiz ma'naviy tarbiyani tashkil etishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va xususiy sektorning hamkorligini samarali yo'lga qo'yish.

Ushbu talablar doirasida ta'lim sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy sharoiti tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy texnologiyalari joriy qilinmoqda. Ma'naviy axloqiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha alohida rejalar asosida ishlar olib borilmoqda.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzlusiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Milliy ma'naviyat va uning asosiy mohiyati, birinchidan, islohotlarning ikkinchi bosqichida ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk insonlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish; ikkinchidan, xalq xo'jaligining barcha sohalarida ma'naviy poklikka to'la erishish; uchinchidan, milliy qadriyatlarni to'la tiklash va shu asosda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish; to'rtinchidan, O'zbekiston mustaqilligini rivojlantirish va takomillashtirish ishlarida faol qatnashish, bu yo'lda fidoiylik namunalarini ko'rsatish; beshinchidan, mustaqil jamiyat va uning taraqqiyoti uchun halol xizmat qilish, O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonch tuyg'ularni tarbiyalash; oltinchidan, Prezident farmoyishlariga sodiq bo'lish, qadrlash va amal qilishdan iborat. Malumki, ma'naviy-axloqiy tarbiya tushunchasi keng qamrovlidir. Uning qirralari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Ma'naviy barkamol inson nafaqat o'z oilasi, qavm-qarindoshi, mahallasi, balki butun O'zbekiston xalqining farovonligi uchun kurashadi.
2. Odob-axloq, fe'l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblaydi.
3. Otababolardan qolgan madaniy merosni qadrlaydi.
4. Milliy qadriyatlarni e'zozlaydi va ularga sodiq bo'lib qoladi.
5. Vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi.
6. Diyonat vaadolat, mehr-shavqat va ezgulikni himoya qiladi. Boshlang'ich maktabda ta'lim-tarbiya berish orqali o'quvchilarning rivojlanishinga yordam beradigan asosiy omillarga: dars mashg'ulotlari, darsdan tashqari tadbirlar, jamoat topshiriqlari va

o'quvchilarning dam olishlarini reja asosida tashkil qilish va hokazolar kiradi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ma'naviyatni singdirishni amalga oshirishda uchraydigan qiyinchiliklarga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: - boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviyatdan dars o'tishga doir ilmiy jihatdan asoslangan maxsus qollanmalarining yetarli darajada emasligi; - boshlang'ich sinflarda fanlararo uzviylik va manaviy-axloqiy tarbiyalash omillari keng o'qituvchilar jamoasiga tushunarli tarzda yetkazilmagan; bu sinflarda ishlayotgan o'qituvchilar bilan o"quvchilar, ota-onalar o'rtasidagi aloqa muayyan pedagogik tizimga solinmagan, nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilmagan; - boshlang'ich mакtabda o"quv mashg"ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun yetarli sharoitlar yaratilmagan; - ma"naviy-axloqiy tarbiya borasida sinfdan tashqari ishlarni o'tkazishda jamoatchilikning yetarli darajadagi ishtiroki ta'minlanmagan; - boshlang'ich mакtabda ma'naviyatdan ta'lim-tarbiya ishlarni tashkil etish bo"yicha olib borilgan maxsus ilmiy izlanishlar zamon talabiga ko"ra qayta ishlab chiqilmagan. Boshlang'ich mакtabda o"quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi samaradorligini oshirish quyidagilarni ko"zda tutadi: - boshlang'ich sinflarda ma'naviy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishning hamda fanlararo uzviylikning o'ziga xos maqsadi va vazifalari to'g'ri belgilanishiga erishish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy va ruhiy rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda yaratilgan pedagogik tizim asosida ish olib borish; - o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odatlari, psixologiyasi, tursushtarzi hamda har bir mакtabning mahalliy sharoitini hisobga olgan holda ma'naviy ta'lim-tarbiya ishlarni tashkil etish jarayonining o'ziga xosligini hisobga olish; - boshlang'ich sinf ta'lim-tarbiya jarayoniga shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini joriy etish va hokazo. Maqollar xalqimizning nodir ma'naviy boyligi bo'lib, o'quvchilarda milliylikni tarbiyalashga, ularni o'zligini anglashga da'vat etadi hamda yosh bolalarning fikrlarini chuqur, ixcham, aniq va obrazli qilib ifodalashga o'rgatadi. Maqollarda o'zbek xalqining turmush-tarzi, ma'naviy qiyofasi, e'tiqodi, odamlarga, tabiatga munosabati o'z ifodasini topgan. O'zbek xalqi doimo Vatanga sodiqlik, mardlik, qag"ramonlik, kamtarlik, samimiylig kabi yuksak axloqiy fazilatlarni yosh avlodga singdirishga alohida e'tibor berib kelgan; "Vataning tinch – sen tinch", "Botirdan o'lim ham qo'rkar", "Yigitning botirini maydonda sina", 'Kamtarga kamol – manmanga zavol". Xalqimiz ayrim odamlarda uchraydigan nodonlik, qo'rkoqlik, yalqovlik, ochko'zlik kabi salbiy sifatlarni keskin qoralash orqali ham yosh avlodni ma"naviy barkamol etib tarbiyalashda ham boy tajriba to'plagan; "Amal tegsa nodonga, o'zini urar har yonga", "Axmoqqa javob sukunat", "Yolg"onchi yolchimas, o'g'ri boyimas", "Insofsizga erk bersang, elni talar". Oila ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Demak, o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy tarbiya elementlarini tarkib toptirish faqatgina mакtabda ta'lim-tarbiya jarayonining bu sohadagi imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqoza qilib qolmasdan, balki ta'lim muassasasining oila, mahalla bilan hamkorlikda ish ko'rishni kun tartibiga qo'yemoqda. Mahallalarda dostonchilik, navoyxonlik, xalq

maqollari, aytishuv, topishmoq va hokazolarning mazmun-mohiyatini chuqur tushunadigan va ularni yosh avlodga yetkazishga moyil otaxon, onaxonlar juda ko'p. Vazifa mahalla pedagoglari o'qituvchilar hamkorligida uchrashuv, suhbatlar tashkil qilishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jalolov, T. S. (2024). ПОРЯДОК СОЗДАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТЕСТОВЫХ ПРОГРАММ. PEDAGOG, 7(6), 145-152.
2. Jalolov, T. S. (2024). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ORQALI IJODIY FIKRLASHNI KUCHAYTIRISH. BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARI ILMIY JURNALI, 2(5), 64-70.
3. Jalolov, T. S. (2024). PYTHONNING MATEMATIK KUTUBXONALARINI O'RGANISH: KENG QAMROVLI QO'LLANMA. BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARI ILMIY JURNALI, 2(5), 71-77.
4. Jalolov, T. S. (2024). DASTURLASHDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI. BIOLOGIYA VA KIMYO FANLARI ILMIY JURNALI, 2(5), 78-84.
5. Jalolov, T. S. (2024). EXPLORING THE MATHEMATICAL LIBRARIES OF PYTHON: A COMPREHENSIVE GUIDE. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 121-127.
6. Jalolov, T. S. (2024). ENHANCING CREATIVE THINKING IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH MULTIMEDIA TECHNOLOGIES. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 114-120.
7. Jalolov, T. S. (2024). THE IMPORTANCE OF ENGLISH IN PROGRAMMING. WORLD OF SCIENCE, 7(5), 128-134.
8. Жалолов, Т. (2023). Использование математических методов в психологических данных (с использованием программного обеспечения SPSS). in Library, 4(4), 359-363.
9. Jalolov, T. S. (2024). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL DATA USING SPSS PROGRAM. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(4), 477-482.
10. Jalolov, T. S. (2024). ИЗУЧЕНИЕ МАТЕМАТИЧЕСКИХ БИБЛИОТЕК PYTHON: ПОДРОБНОЕ РУКОВОДСТВО. MASTERS, 2(5), 48-54.
11. Jalolov, T. S. (2024). ВАЖНОСТЬ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ПРОГРАММИРОВАНИИ. MASTERS, 2(5), 55-61.
12. Jalolov, T. S. (2024). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ С ПОМОЩЬЮ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. MASTERS, 2(5), 40-47.
13. Sadriddinovich, J. T. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICE. PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 61-67.

14. Jalolov, T. S. (2024). SPSS DASTURI FOYDALANISHDA PSIXOLOGIK MA'LUMOTLARNI TAHLILI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(4), 463-469.
15. JALOLOV, T., FAYZIEV, S., & USMONOV, A. "AQLLI ISSIQXONA" BOSHQARISH TIZIMINI MODELLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH.
16. Ikromova, S. A. (2024). BASICS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES. PEDAGOG, 7(5), 670-676.
17. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN EDUCATION. PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 40-46.
18. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI. PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 54-60.
19. Akbarovna, I. S. (2024). STAGES OF PSYCHOLOGICAL CONSULTATION. PEDAGOG, 7(4), 328-334.
20. Икромова, С. А. (2023). ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИММУНИТЕТА К ДЕСТРУКТИВНЫМ ИДЕЯМ У ПОДРОСТКОВ. European research, (3 (81)), 47-49.
21. Ikromova, S. (2024). PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA SHAKLLARI VA MAZMUNI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 918-924.
22. Ikromova, S. (2024). FORMS AND CONTENT OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 933-939.
23. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 882-887.
24. Akbarovna, I. S. (2024). PEDAGOGIK MAHORAT ASOSLARINI O'ZLASHTIRISH. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 888-893.
25. Akbarovna, I. S. (2024). THE IMPORTANCE OF FORMING MATHEMATICAL CONCEPTS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 912-917.
26. Akbarovna, I. S. (2024). MATEMATIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANISHINING AHAMIYATI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 900-905.
27. Икромова, С. А. (2024). ЭТАПЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОНСУЛЬТАЦИИ. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 875-881.
28. Akbarovna, I. S. (2024). PSIXOLOGIK MASLAHAT BOSQICHLARI. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(3), 860-866.
29. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).

30. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26).